

Birinchi Prezident xotirasiga yuksak ehtirom

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz erishgan barcha yutuq va marralar Islom Karimov nomi va faoliyati bilan bog'liq. Birinchi Prezidentimiz mamlakatimiz mustaqilligini qo'lga kiritishdan tortib, uning taraqqiyoti, jahonda o'z o'rnini va so'ziga ega davlatga aylanishi yo'lida yuksak fidoyilik ko'rsatib mehnat qildi. Uning tengsiz jasorati va uzoqni ko'zlab yuritgan dono siyosati tufayli O'zbekiston tarixan qisqa davrda izchil rivojlanish yo'lini bosib o'tdi, mamlakatimizni dunyo tanidi. Islom Abdug'anievich Karimov o'zining serqirra siyosiy faoliyati, olijanob insoniy fazilatlarini bilan Vatanimizning ko'p asrlik tarixida o'chmas iz qoldirdi. U nafaqat O'zbekiston, balki jahon miqyosida katta hurmat va obro'-e'tiborga sazovor bo'lgan ulkan shaxs va arbob sifatida tanildi.



Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti "Gidromelioratsiya" fakulteti Hidrologiya (Daryo va suv omborlari gidrologiyasi) yo'nalishining guruh murabbiysi Jumabaeva Gulnora Usmanbaevna 1-bosqich talabalari bilan Islom Karimov majmuasiga tashrif buyurdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "O'zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak" bong urib qo'ymasdan, hamdo'st barcha davlatlar rahbarlarini ham ahil-inoq va o'zaro hamkorlikda totuv yashashga da'vat etdi va ma'lum ma'noda bunga erishdi ham. Darhaqiqat, Yer yuzida tinchlikni saqlashga, xalqlar do'stligini mustahkamlashga, umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishga qo'shgan hissasi jahon hamjamiyati e'tirof etilgan mustaqil O'zbekiston davlati asoschisi Islom Karimovning muqaddas xotirasi har qancha e'zozga, hurmatga loyiqdir.



TIQXMMI matbuot xizmati